



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Президент қарорига кўра



Эҳтиёжманд оилаларга электр энергияси ва табиий газ учун компенсация тўланади

Жорий йилнинг 2 апрель куни Президент томонидан “Ёқилги-энергетика соҳасида эҳтиёжманд аҳолини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилинди.

Қарорга кўра, 2025 йил 1 майдан 2027 йил 1 апрелга қадар “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали болалар нафақаси ва моддий ёрдам олувчи ҳамда Камбағал оилалар реестрига (Реестрлар) киритилган, шунингдек, реестрларга киритилмаган, бироқ моддий аҳоли бўйича кам таъминланган оилалар мезонларига тўғри келувчи, оиладаги жон бошига даромади минимал истеъмол харажатларининг 1,5 баробаридан ошмайдиган оилаларга:

- электр энергияси истеъмоли бўйича – ойига базавий меъёрдан 150 кВт соатгача;
- табиий газ истеъмоли бўйича – иситиш мавсумида ойига базавий меъёрдан 250 куб метргача, бошқа даврларда ойига базавий меъёрдан 150 куб метргача ортққ фойдаланилган қисми учун базавий меъёр доирасидаги ҳамда базавий меъёрдан ошган нархлар ўртасидаги фарқ компенсация қилиб берилди.

Жорий йилнинг ноябрь ойида реестрларга киритилган оилаларга, “маҳалла еттилиги” хулосаси асосида шакллантирилган қўшимча рўйхатга киритилган оилаларга 1 миллион сўмдан бир марталик моддий ёрдам ажратилади.

Қўшимча рўйхат шакллантирилишида, биринчи навбатда, куйидагилар инobatга олинади: боқувчисини йўқотган оилалар; аъзолари I ёки II гуруҳ ногирони бўлган шахслардан иборат бўлган оилалар;

ногиронлиги бўлган болаларни парваришлаётган оилалар; узоқ муддатли даволанишни талаб этадиган касалликлар билан касалланган шахслар яшовчи оилалар; ўзгалар парваришига муҳтож бўлган ёлғиз яшовчи шахслар ҳамда ёлғиз яшовчи кексалар; ногиронлиги бўлган шахслар; 3 ва ундан ортққ оила яшайдиган хонадонларда ҳамда газ таъминоти бўлмаган ва марказлаштирилган тартибда иситилмайдиган кўп қаватли уйлarda яшовчи оилалар.

2025 йил 1 октябрга қадар “маҳалла еттиликлари” томонидан республика бўйича ҳар бир маҳалла кесимида қўшимча рўйхатлар шакллантирилади.

Бунда ҳокимликлар тегишли туман (шаҳар) бўйича реестрларга киритилган оилалар сонининг 40 фоиздан ошмаган ҳолда эҳтиёжманд оилалар сонига маҳаллар кесимида ўзгартириш киритиши мумкин.



Dunyo parlamentlari vakillari yurtimizda

Joriy yilning 5-9-aprel kunlari Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasi O'zbekistonda o'tkazilmoqda. Mazkur tadbir mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim tarixiy voqeadir.

Assambleyaning asosiy mavzusi “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” deb nomlanib, uning doirasida butun dunyo parlamentlari aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, huquq ustuvorligini ta'minlash borasida tajriba almashadi. Bu nufuzli xalqaro maydon dunyo parlamentlarining ochiq muloqoti markaziga aylanib, global muammolarni hal etishda muhim qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Hozirgi global o'zgarishlar va tahdidlar sharoitida 181 davlat parlamentining va 15 ta mintaqaviy parlament birlashmalaridan iborat bu nufuzli tashkilotning katta anjumani O'zbekistonda o'tkazilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli va chuqur demokratik islohotlar natijasi, xalqaro hamjamiyatning yurtimizga bo'lgan yuksak ishonchi ifodasidir.

Qolaversa, Parlamentlararo ittifoqning faoliyati va ustuvor yo'nalishlari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar bilan hamohang.

Parlamentlararo ittifoqning 2022-2026-yillar uchun strategiyasida iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlar, demokratiya, inson huquqlari, gender tengligi va yoshlarning ishtirokini ta'minlash, tinchlik va xavfsizlik, barqaror rivojlanish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu yo'nalishlar O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalar bilan uyg'unlik kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda gender tengligi va aholi barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga asoslangan. Aynan ushbu tamoyilni Parlamentlararo ittifoq ham o'z faoliyatida bosh harakatlantiruvchi omil sifatida belgilagan.

Oxirgi yillardagi eng muhim yutuqlardan biri mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligidir. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-yilda mamlakatimizda kambag'allik darajasini aniqlashning “minimal iste'mol xarajatlarini” hisoblash uslubi joriy etildi va kambag'allik tushunchasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

2020-yilda yurtimizda kambag'allik darajasi 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, tizimli islohotlar

natijasida 2022-yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 14,1 foizga, 2023-yil yakuni bo'yicha 11 foizgacha kamaydi. 2024-yilda esa kambag'allik darajasining 8,9 foizga tushdi.

Bu yutuqlar barqaror makroiqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholiga ajratilgan tomorqa va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanishni kengaytirish tufayli qo'lga kiritildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina viloyatimizda kambag'allik darajasining 7,5 foizga pasayishi viloyatda tadbirkorlik jadal rivojlanayotganidan darak beradi.

Albatta, bu kabi o'sish-o'zgarishlar mamlakatimiz, xususan, viloyatimizning qadimiyl shuhrati tiklanishiga ham sabab bo'lmoqda. Misol uchun, Samarqand rasman YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkaziladigan joy sifatida belgilandi. E'tiborlisi, ushbu konferensiya so'nggi 40 yil ichida Parijdan boshqa yerda o'tkazilmagan.

Bu – jahon hamjamiyatining mamlakatimiz ochiqligi, o'ziga xos an'analari va madaniy merosi, boy tarixiga katta qiziqish bilan qarayotganidan dalolat.

Haydar O'ROQOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi
deputati, “Navobod nasilli parranda” ko'p
tarmoqli fermer xo'jaligi rahbari.

Har yili bahor kelishi bilan mahalla va qishloqlarimizda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari boshlanadi. Yoshu qari hashar yo'li bilan ariq qazish, ko'cha va yo'llarni tozalash, yo'l yoqalarini obodonlashtirish, tomorqalarga ekin, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish kabi bahoriy ishlarni amalga oshirishadi.

Joriy yil boshidan Payariq tumanida ham bu ishlar tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining 300 nafardan ortiq ishchi-xizmatchilari tomonidan muntazam olib borilmoqda. Ular tomonidan shu kungacha mahallalarda qariyb 20 ming kvadrat metr maydon ko'kalamzorlashtirildi. Tuman markazi va Chelak shaharchasidagi dov-daraxtlarga ishlov berilib, maydonchalar ko'kalamzorlashtirildi, supurilib, chiqindilar olib chiqildi. 17500 pogona metr irrigatsiya tarmoqlari tozalandi. Tuman istirohat bog'i hamda ko'chalarga yuzdan ziyod manzarali gul ko'chatlari va butalar ekildi.

Bu yil ko'chalarni yoritish tizimini modernizatsiyalash maqsadida serqatnov yo'llarga 250 ta quyosh panelli tungi yoritish chiroqlari o'rnatish rejalashtirildi, - deydi tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Abdulatif Bahodirov. - Tuman markazidagi Go'zal mahallasi hududida 800 metr uzunlikda velo va piyodalar yo'lakchasi quriladi. Markaziy



Payariqda obodonlashtirish ishlariga qanday e'tibor berilyapti?

Mavsum yumushlari



istirohat bog'i qiyofasi butunlay o'zgartiriladi. Ayni vaqtda ishchilarimiz Samarqand, Payariq 50 yilligi, Cho'lpon ko'chalari hamda Xo'ja Ismoil mahallasi hududida 100 ming dona har xil turdagi gul ko'chatlarini ekaypti. Shuningdek, “Yashil makon” umum-milliy harakati doirasida 20 ming tup manzarali va yog'ochbop daraxt ko'chatlari o'tqaziladi.

Tuman hududidagi 121 ta qabristonda piyodalar yo'laklari va avtomobil turarjoylari quriladi. Obodonlashtirish boshqarmasining maxsus texnikalari uchun alohida garaj va manzarali gullar yetishtirish uchun issiqxonalar barpo etiladi. Shuningdek, reja asosida 100 kilometr uzunlikdagi ichki yo'llar shag'allashtiriladi.

Boshqarma qoshida tashkil etilgan ichki yo'llarni ta'mirlash bo'limi tomonidan bugungacha Javshar ota, O'zbekiston, Beshqo'rg'on, Juvozxona, O'ymovut kabi o'ndan ortiq mahalladagi qariyb 10 kilometr ichki yo'llar shag'allashtirildi. Jumladan, “Obod qishloq” dasturi asosida Xalqobod mahallasi-da 2 kilometr ichki yo'l shag'allashtirilib, 6,5 kilo-

metr yo'l asfalt qilindi. Ko'cha yoqalariga 43 dona zamonaviy tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Do'stlik, Navbahor, Zarafshon, Yangiobod mahallalarida 11,4 kilometr ichki yo'llar asfaltlashtirildi.

- Ko'chalimizning so'nggi marta asfalt qilinganiga qariyb 35 yil bo'ldi, - deydi Yangiobod mahallasida yashovchi Umar Jabborov. - Yo'lining o'ydim-chuqurlari qayta-qayta yamalaverib, qalinlashib ketgan edi, yog'ingarchilik bo'lsa, darrov ko'lmaklar paydo bo'ladi. Nafaqat yengil avtomobil, balki yuk mashinalari haydovchilari ham o'tishga ikkilanadigan bo'lib qolgan. Nihoyat eski qoplamalar o'rniga yangisi to'shalgach, yo'limiz yanada ravon va tekis bo'ldi.

Obodonlashtirish ishlari tumandagi 129 ta qabristonda ham olib borilyapti. Zarafshon mahallasida joylashgan “Revoj” qabristonining ma'muriy binosi ta'mirlandi. Tomoyrot, Mirzo Ulug'bek nomli hamda Boshqo'rg'on mahallalaridagi qabristonlar devor bilan o'raldi. Choshtepa mahallasidagi “Azzamxon bobo” qabristonida ayvon qurilishi yakunlandi.

- Obodonlashtirish ishlaridan tumandagi boshqa korxonalar va tashkilotlar vakillari ham chetda qolgan yo'q, - deydi tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i Dilmurod Ro'ziyev. - Joriy yilda “Yashil makon” umum-milliy loyihasi asosida 1 million 414 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish rejalashtirilgan bo'lib, bahorda 905 ming tup ekilishi lozim.

Tumanda 1 ta xiyobon, 2 mahallada soyali ko'cha, 6 mahallada mevali bog', 12 ta mahallada esa daraxtzorlar tashkil etish ko'zda tutilgan bo'lib, bugungi kunda ishlar boshlangan. Tumandagi 19 ta



sanoat korxonasi chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatilib va korxonalar hududlarida “yashil belbog” barpo etilmoqda. Alisher Navoiy nomli va Xalqobod mahallalarida mahalla bog'lari yaratish borasida jadal ishlar olib borilmoqda.

- Bu yil suv yetkazib berish yoki suv chiqarish imkonini bo'lgan maydonlargacha ko'chat ekishga qaror qilindi, - deydi tuman obodonlashtirish boshqarmasi bosh muhandisi Nurali Odilov. - Tumanda tashkil etilgan ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi hududiy shtab vakillari xulosasiga ko'ra, qulay maydonlar tanlanmoqda. Do'stlik mahallasida bo'sh yotgan 3 gektar maydonda hokimlik bog'i tashkil etilmoqda. Sug'orish tarmog'i tortish rejalashtirilgan.

Mutaxassislar daraxt ko'chatlari ekilgach, o'z vaqtida tagini yumshatish, o'g'itlash, begona o'tlardan tozalash, kasalliklariga qarshi kurashish va eng muhimi, sug'orish ishlari tashkil etiladi, degan gaplariga ishongimiz keladi. Yanayam buni vaqt ko'rsatadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Munosabat



Jamiyatda korrupsiya oddiy xalq vakillarining yuqori amaldorlarga yoki davlat amaldorlarining bir-biriga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Ushbu salbiy holatlarning har qanday ko'rinishi jamiyatni halokat yoqasiga olib borishi muqarrar. Shunday ekan, ushbu illatga qarshi kurashish maqsadida mamlakatimizda korrupsiyaga barham berish, hokimiyat amaldorlarining halol ishlashini ta'minlash, tadbirkorlar oldida turgan byurokratik to'siqlarni olib tashlash, davlat organlari faoliyatining ochiqchiligi va shaffofligini ta'minlash, davlat va xalq o'rtasidagi jarayonlarda inson omilini kamaytirishga qaratilgan bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan.

Faqat hukumatning kuchi bilan korrupsiyaga barham berib bo'lmaydi

Jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlar, davlat rahbarining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etib, o'z samarasini bermozda. Ushbu hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarlari kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan.

Joriy yil 5-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig'ilishida fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaning oldini olishdagi roliga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurt-doshimizning vijdon ishi, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerakligini qayd etdi. Shu bois korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilik va deputatlar jalb qilinishi zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, yig'ilishda parlament keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya talablarini monitoring qilishga nodavlat tashkilotlar jalb qilinsa, katta samara berishiga ishonch bildirildi. Ushbu maqsadlar uchun yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga har yili 10 milliard so'mdan ajratib borilishi aytiladi.

Korrupsiyaning har qanday turiga qarshi kurashishda davlat fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ish yuritish lozim. Bugun bu borada siyosiy partiyalar, deputatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'z samarasini bermozda. Xususan, tadbirkorlik, sog'liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish kabi sohalarini tartibga solish borasida ko'rsatilayotgan tashabbuslar shular jumlasidandir.

Korrupsiyaga barham berishga faqat davlat va hukumatning kuchi bilan erishib bo'lmaydi. Bunda butun jamiyat, barcha fuqarolar faol kurashmogi zarur.

Ilhom BOTIROV,
O'zLiDeP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Мархум ҳали ёш эди, қирқинчи баҳорини кўришга улгурмади. Одатда бундайларнинг жанозаси оғир ўтади. Фарзанд доғида қолган ота-она, отасининг меҳрига тўймаган болалар дод-фарёди, йиғи-сиғилари бугун маҳаллани тутди. Уларга ҳамдардлик билдириш учун келувчилар кўп бўлади. Бироқ бу маърака бошқача бўлди...

Жанозага кечикиброқ етиб бордим. Шундай бўлса-да, йиғилганлар фавкулда кам эди. Асосан мархумнинг қариндош-уруғи ва ҳамсоялари. Шулар ҳам тўда-тўда бўлиб, нималарнидир муҳокама қилар, баландроқ овозда кулиб юборишдан та тийилмас эди. Бел боғлаганлар "меҳмон" келганда жиддий тортиб, у сафга қўшилгач, яна хангомага зўр берарди. Бу вазиятдан

Жанозадан репортаж



ноқулай бўлдим.

Бел боғлаганлардан ёшроғини имлаб, ёнимга қақириб олдим. Нега ҳамма хурсанд, деб сўрашга юзим бормай, саволни "узоқ"дан бердим:

— Мархум ёш кетибди, касалмиди?
— Отдай эди, - фалати мамнулик билан жавоб берди йиғитча. — Охири марта кўпроқ ичиб қўйганими ёки захарланганими, қўтилмаганда ўлиб қолди.

— Аттанг! Оиласи бормиди? Бечораларга қийин бўлди!
— Биринчи хотинини уриб, майиб қилган. Иккинчиси уйига кетиб қолган, жанозага ҳам келмади. Ароқ олиш учун уйдаги ҳамма нарсани чиқариб сотарди

раҳматли. Оиласи энди тинч яшаса керак. Афсус, жаноза оиласи ва бошқа яқинлари учун тириклигидаёқ ўлиб бўлган одамники экан. Вазият шу даражага борганки, ҳеч ким унинг ўлимига олиб келган аниқ сабабни билмайди ва бунга қизиқмайди ҳам. Шунинг учун яқинлар юзида ғамни кўрмайсиз. Аксинча, улар хаста бир аъзосини кестирган беморга ўхшарди: кесилган жой ҳали азоб бераяпти, лекин дарддан қутилганига хурсанд.

— Охири марта "наркологи"далигида бориб кўргандим, - дейди улфатларидан бири. — Мени кўриб, хурсанд бўлиб кетганди. Яқинларидан ҳеч ким

бормаган экан. Тўғри, бу унинг биринчи даволаниши эмас, лекин шу галгисда мақсади жиддийга ўхшаганди. Кўп ичса-да, яхши одам эди. Бунақа яқунга муносиб эмасди.

Мен у инсонни ҳар замон кўчада кўриб қолардим. Кўпинча сармаст, улфатлари қуршовида топардим. Бир-икки марта "Ҳақ бермайсанми, ҳеч бўлмаса, битта ароққа пул бер", дея йўлимни тўсгани ҳам эсимда. Бироқ машъум хабарни эшитиб, у билан боғлиқ барча ноҳуш хотиралардан воз кечдим. Наҳотки яқинлари бир бегоначалик бўлмади.

Агар бугун бел боғлаган дадаси-ю, хориждан жанозага етиб келолмаган онаси ўғлининг тарбиясига эътибор берганида, яқинлари эса унинг устидан кулмай, тўғри йўл кўрсатганида, балки у яхши инсон бўлармиди, ҳаёти бундай тез яқун топмасмиди?!

Хуллас, мен учун у ўлмади, балки оиласи томонидан "ўлдирилди". Эътиборсизлик, масъулиятсизлик, бокибеғамлик, бола тарбиясига соувқонликнинг кечиккан қурбони бўлди у.



Асқар БАПОТОВ.

TURIZM TA'LIMINING ASOSIY DRAYVERI

Turizm sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni kun sayin oshib bormoqda. Birgina o'tgan 2024-yilda bunday sayyohlar soni 10 millionga yaqinlashdi.

Prezidentimizning turizm sohasini rivojlantirishga doir qaror va farmonlari bevosita soha taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan qadim kentlar - Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon kabi shaharlarda xizmat ko'rsatish sohasi, xususan, mehmonxonabiznesi, gastronomik turizm, ziyorat turizmi, uy-mehmonxonalar qariyb o'n barobarga ko'paydi. Bu aholining ish bilan ta'minlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyoda yagona "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tashkil etilganiga 6 yil bo'lgan bo'lsa, shu kunga qadar magistratura yo'nalishida 354 nafar, kunduzgi bakalavr yo'nalishida 573 nafar va sirtqi ta'lim yo'nalishida 104 nafar mutaxassislar tayyorlandi.

Universitetda o'quv ishlarini Oksford universiteti professori J.Xoffman tashkil qilsa, ilmiy ishlar va innovatsiyalarni Xitoy turizm va madaniy meros akademiyasi direktori bo'lib ishlagan yetuk olim, T.Zou prorektor sifatida olib bormoqda. Bunday zamonaviy boshqaruv tizimi haqiqiy ma'noda turizm ta'limi sohasida rivojlangan davlatlar tajribasini o'zimizda qo'llashda qo'l kelyapti.

Bundan tashqari, talabalarimizga AQSh, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Hindiston,

Fransiya, Italiya, Yaponiya, Eron, Avstraliya kabi davlatlardan kelgan 20 nafarga yaqin malakali professor-o'qituvchilar, ilmiy darajaga ega bo'lgan mahalliy mutaxassislar tomonidan ta'lim berilyapti.

Hozirda universitet xalqaro talablarga mos o'quv xonalari, zamonaviy laboratoriyalar, sport inshootlari bilan ta'minlangan. Universitetda talabalar o'zimizda yaratilgan va Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Yevropa davlatlaridan keltirilgan 30 mingga yaqin o'quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

2021-2022-o'quv yilida universitetga 8 nafar xorijlik talaba qabul qilingan bo'lsa, 2024-2025-o'quv yilida bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishida 19 davlatdan 74 nafar talaba ta'lim olmoqda.

Hududlardagi mavjud ehtiyojni o'rganish natijasida ishga tushirilayotgan yangi loyihalarga ko'ra, barpo etilayotgan ko'plab turistik obyektlar sonidan kelib chiqib, joriy o'quv yilida yangi 5 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 2 ta magistratura mutaxassisligi tashkil etildi.

Prezidentimizning 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar o'qimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-2025-o'quv yilidan boshlab universitetda kunduzgi ta'lim shaklida tarjima nazariyasi va amaliyoti: xitoy tili ta'lim yo'nalishiga talabalar qabul qilindi. Shu sababli universitetda yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari kafedrasini tashkil etildi.

Universitetimizning ta'lim xizmatlari bozoriga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, ta'lim va ilmiy

tadqiqot sohalarida erishgan yutuqlari xalqaro dasturlarda ishtirok etish imkoniyatini berdi.

Hozirgi vaqtda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti ERASMUS+ dasturining QUARTZ - "Quality Assurance for Reform and Transformation of HEIs in Uzbekistan" (O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarini isloh qilish va o'zgartirish, sifatini ta'minlash) loyihasida hamkor oliy ta'lim muassasa sifatida ishtirok etib kelmoqda. Loyiha oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash bo'yicha ilg'or bilim va tajriba almashinuvini rag'batlantirib, yevropalik hamkorlarning tajribalariga asoslanadi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturlarining xalqaro standartlariga mos kelishini ta'minlash va bitiruvchilarni xalqaro mehnat bozori talabalariga samarali tayyorlash uchun kerak bo'ladigan zarur vositalar va asoslar bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarini faoliyatining sifatini yaxshilash orqali mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarini va mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni ko'zda tutadi.

2023-yil oktabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-yubiley sessiyasi doirasida universitetimizda Xalqaro turizm akademiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu akademiyasi turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarining buyurtmasiga ko'ra, bir yilda bir necha marotaba ta'lim guruhlarini shakllantirgan holda o'quv kurslari tashkil etadi. Bu yerda uch yilda 2740 nafar o'rta

bo'g'in mutaxassisi qayta tayyorlanadi. Jumladan, birinchi akademik yilda bitta dastur - mehmondo'stlik menejmenti bo'yicha, 2024-yilda 20 nafar trener va 2025-yil yanvardan 200 nafar mutaxassis tayyorlanadi. Ikkinchi akademik yildan boshlab mavjud uch yo'nalishda 60 nafar trener va 1200 nafar mutaxassis o'qitiladi. Akademiyaning o'quv dasturi Shveysariya mehmondo'stlik maktablari tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mashg'ulotlar chet ellik maslahatchilar tomonidan olib boriladi. Akademiyani tamomlaganlarga hamkor ta'lim muassasalarini tomonidan tan olingan sertifikat beriladi. Har bir modulni tugatgandan so'ng talabalar xususiy sektor hamkor kompaniyalarida amaliyot o'tash orqali soha bo'yicha tajribaga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, Ipak yo'li davlatlari tarixi, san'ati va sivilizatsiyalarini tadqiq etish maqsadida universitet huzurida "Ipak yo'li" xalqaro tadqiqot instituti, "Ipak yo'li" muzeyi, "Ipak yo'li" art-rezidensiyasi va "Ipak yo'li" san'at galereyasi faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad respublikamizda turizm, madaniy meros va muzeyshtunoslilik sohalarida xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozoriga yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlashdan iborat.

Aziz ABDUHAQIMOV,
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektori.

Fransiya uzoq yillardan buyon O'zbekistonning Yevropadagi eng muhim hamkori, sherigi sifatida nafaqat siyosiy, madaniy, ijtimoiy sohalarida, balki savdo-iqtisodiy sohada ham muhim hamkorlarimizdan biri hisoblanadi. Yaqinda davlatimiz rahbarining Fransiya tashrifi ikki davlat o'rtasida uzoq tarixga ega aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi.

Ellikdan ortiq fransuz-o'zbek kompaniyalari birlashdi

Savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yaxshilash maqsadida Fransiya bilan hukumatlararo komissiya ikki davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ishlab kelmoqda. Xususan, 2021-yilda ushbu komissiya tomonidan sakkiz marotaba, 2023-yilga kelib, to'qqiz marotaba hamda 2024-yilda o'n bor o'zaro manfaatli masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishlar tashkil etildi. Natijada Toshkent shahrida "O'zbekiston - Fransiya" iqtisodiy palatasi faoliyatini boshladi. Bugun 50 dan ortiq fransuz va o'zbek kompaniyalari tadbirkorlari birlashib, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

Ayniqsa, jahon reytingida yetakchi o'rinni egallagan Fransiya oliygohlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, O'zbekistonda Fransiyaning ilk universitetini ochish borasidagi muhim qadamlar barcha yoshlar va ziyolilarni birdek quvontirdi.

Biz, samarqandliklar uchun e'tiborli jihati, Fransiya poytaxti Parij shahri ko'chalaridan biriga Samarqand nomi berilgani bo'ldi. Hududlararo aloqalarni



rag'batlantirish maqsadida 2026-yilda Samarqand shahrida ikki mamlakat hududlarining birinchi forumini o'tkazishga kelishilgan ko'p qirrali hamkorligimizning yanada kengayishi uchun yo'l ochadi.

Bundan tashqari, tashrif davomida foydali konlarni o'zlashtirish, mahsulotlarni qayta ishlash, qurilish materiallari, kimyo va farmatsevtika tarmoqlari, elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar O'zbekiston-Fransiya ishbiarmon doiralari hamkorligining ishtiqlik yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Muhiba SAYFIDDINOVA,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, "Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankingning Toyloq tumani filiali boshqaruvchisi.



Startup loyihalari: talabalar undan qanday foydalanyapti?

Keyingi yillarda talabalarga berilayotgan imkoniyatlardan biri startup loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi, buning ortidan talabani daromad qilishiga shart-sharoit yaratilayotganidir. Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabalarining bu borada yutuqlari anchagina. Yaxshisi, ularning ayrimlari bilan tanishamiz.

- Startup loyihaning nomi "Lentil chips - sof va tabiiy mahsulot" bo'lib, u sifati va antioksidantlarga boy yasmiq o'simlikdan tayyorlanadi, - deydi institutning issiqxonona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Fotima Qodirqulova. - Loyiha yasmiqdan samarali hosil olish hamda undan ekologik toza, vitaminlarga boy bo'lgan chipslarni ishlab chiqish maqsadida yaratildi. Yasmiq dukkakli don ekinlari orasida oziq-ovqat qiymatligi bo'yicha yetakchi o'rinda turadi.

Viloyat hokimligi tomonidan 2024-yilda bo'lib o'tgan startup loyihalar tanlovida ushbu loyiham 197 million so'mga loyihalashtirildi. Institutda maxsus xona ajratilib, uchta ish o'rni yaratildi. Bugungi kunda institutimiz hududida ajratilgan xonada ishlab chiqarish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Yaqinda Lentil chipslarning inson organizmiga zarari yo'qligi haqida Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasining xulosasini oldik. Bundan tashqari, mualliflik huquqiga ham egamiz. Lentil chipslarni biz sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchimiz. Ularni mamlakatimizga hamda xorijga eksport qilishni rejalashtirganmiz.

- "Dorivor bo'yimadoron" loyihasi ustida ish olib boryapman, - deydi dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Shahzodabonu Kurashva. - Loyiham dorivor o'simlik bo'lgan bo'yimadoronning plantatsiyasini yaratishga qaratilgan bo'lib, o'simlikni qarovsiz, foydalanilmaydigan yerlarda o'stirish va undan yaxshi daromad olish maqsad qilingan. Bu o'simlik bakteritsit ta'sirga ega ekanligini hisobga olgan holda bakteriyalarga yallig'lanishga qarshi oshqozon ichak kasalliklari, ya'ni oshqozon yarasini, gastrit uchun damlama va qaynatma shaklida qo'llaniladi. Ushbu loyiham o'tgan yili viloyatda bo'lib o'tgan startup loyihalar tanlovida 50 million so'mga moliyalashtirildi. Ushbu pulga asbob-uskunalar sotib o'ldik va bo'yimadoron choyini ishlab chiqaryapmiz.

Darhaqiqat, o'tgan yili viloyat hokimligi tomonidan qiymati 1 milliard so'm bo'lgan loyihalar tanlovi e'lon qilingan edi. Ushbu tanlovda institutning 24 nafar talabasi startup loyihalari bilan qatnashib, g'olib bo'ldi. Ular shu asosda ilmiy yo'nalishda faoliyatini boshladik. Qo'lga kiritilgan mablag'lar asosida turli uskunalar sotib olinib, institutda laboratoriyalar, issiqxonalar tashkil qilindi.

Yaqinda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Agropro Ekspo-2025" xalqaro ko'rgazmasida ham institutning iqtidorli talabalar o'z startup loyihalari bilan qatnashdi. Ulardan biri biznesni boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich

talabasi Asila Ahrorovadir.

- Men "Universal mobile harakatlanuvchi issiqxonona" loyihasi ustida ishlayapman, - deydi A.Ahrorova. - Aholiga yil davomida xonadon xo'jaliklarda foydalanishga mo'ljallagan mevalarni quritish hamda boshqa o'simliklar yetishtirishda qulay bo'lgan mini harakatlanuvchi issiqxonona juda zarur. Bu loyihaning qulayliklardan biri issiqxonadan qishin-yozin foydalanish mumkin. Quritilgan mevalar xonadon egalari qo'shimcha daromad manbaini yaratadi. Mini issiqxonadan har bir uy xo'jaligida foydalansa bo'ladi. Uning hajmi va tuzilishi barchaga foydalana olish imkonini beradi.

Haqiqatda Asilaning mazkur loyihasi ixchamligi, harakatlanuvchanligi va hamyonbopligi bilan tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Institut talabalarining startup loyihalari o'z yo'nalishiga ko'ra turli tuman, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Masalan, iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Farrux Botirov "Innovatsion mo'rilar" loyihasi ustida ishlayapti.

- Innovatsion mo'rilar gazsimon moddalarning harorat tushishi natijasida suyuq holatga o'tish jarayonining oldini oladi, - deydi u. - Mo'ri devori yuzasida quyuc, qora, o'tkir hidli massa hosil bo'lmaydi. O'tkir qo'lan-sa hid ajralishi, pech joylashgan joyda ketmaydigan dog'lar yuzaga kelishi kabilarning oldini oladi. Mo'ri quvurining xizmat muddatini uzaytirishga erishiladi.

- Mening "EvoHarvest" loyiham mevalarni tez, samarali va sifati tarzda yig'ib olishga qaratilgan, - deydi iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi Malika Qobilova. - Daraxtni mexanik silkitish texnologiyasi yordamida faqat pishgan mevalar tushiriladi, maxsus mato esa mevalarning shikastlanmasdan tushishining oldini oladi. Bu texnologiya olma, o'rik, shaftoli, yong'oq va boshqa daraxt mevalari uchun juda mos keladi. Qo'lda hosil yig'ish bog'bonlar uchun katta xarajat talab qiladi. Hosilning kamida 10-20 foizi qo'lda yig'ish jarayonida isrof bo'ladi. "EvoHarvest" loyihasi maxsus silkitish mexanizmi daraxt tanasini yumshoq tebratish orqali faqatgina pishgan mevalarni tushiradi. Bir soat ichida qo'lda yig'ilgan mevalarga qaraganda uch barobar ko'p hosil yig'ish imkoniga ega.

Shuningdek, institut talabalar tomonidan "Oqova suvlarni tozalashning samarali intensiv usuli", "Parandalarni oziqlantirishda innovatsion usul", "Kombinatatsiyalashgan issiqxonona", "Nuroniyalar ko'makchisi" kabi bir qator startup loyihalar ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xurshida ERNAZAROVA,
"Zarafshon" muxbiri.

Muomala - inson ziynati

Talabani vazifasi ilm o'rganish bo'lgani uchun u ko'p tinglashi va oz so'zlashi kerak. "Farzandim, sukut saqlab hech qachon pushaymon bo'lmaysan. Negakim, so'z kumush bo'lsa, sukut tilladir", deydi Luqmoni Hakim. O'qituvchining vazifasi ilm o'rgatish bo'lganligi bois ham u ko'p so'zlaydi. Lekin undan qo'yilgan masalaning mohiyatini ochuvchi, talabani qiziqituvchi, tafakkurlashga majburlovchi, aqlini kamol toptiruvchi so'zlardan foydalanib, so'zlash talab etiladi. Agar uning vaqti eza maqalarga, vaysaqilikka berilsa, talaba oldida hurmati yo'qoladi. Chunki ko'p gapirib, fikr aytmaslik, masala mohiyatini kashf etmay, uning tashqi belgilarini bo'rttirish, alal-oqibat yuzaki olib-qochishlarga, poyintar-soyintar so'zlarni qalashitirishga olib keladi. Bu xuddi qog'ozdan yasalgan gulga o'xshaydi va tashqi ko'rinishi diqqatingizni jalb etadi, lekin o'yab ko'rsangiz, u hid taratmaydi, uning hayotiyli va mohiyati sirliligicha qolaveradi.

O'qituvchi nutqidagi bunday nuqson talaba nutqiga ham ko'chishi mumkin. Yomon ibratning yuquvchanlik xislati kuchliroq bo'lishi asoslidir.

Shuning uchun ham Hazrati Ali "Bilgiki, aql kamol topsa, og'iz so'zga ochilavermaydi. Zero, gapirsa hikmat va foydali gaplarni gapiradi", degan ekan. Xalqimiz esa "Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla", degan maqol ham bor.

Xalq orasida so'zlar shunday saralanadiki, aytilayotgan hikmatning borligini to'la-to'kis ifoda qiladi. Birona so'z ortiqchalik qilmaydi. Birona so'zning o'rni almashtirib bo'lmaydi.

Masalan, "Mahjub ul-qulub" asarida shunday deyiladi: "Chin so'z - mo'tabar, yaxshi so'z - qisqa-muxtasar. Ko'p so'zlovchi - zeriktiruvchi,



qayta-qayta gapiruvchi - aqlidan ozgan. Kimning miyasida illat bo'lsa, so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi yoqimli va xatosiz bo'ladi. So'zi hisobsiz - o'zi hisobsiz. So'zida parishonlik o'zida pushaymonlik. Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmagan bo'lsa, unga chinlik bezagi yetarlidir".

Hazrat Alisher Navoiyning bu tanbehlarini xalqimizning quyidagi haq so'zlari yana to'ldiradi: "Gapi to'mtoqning - o'zi to'mtoq", "Aqliga so'z aysang, ko'p kechikmay bitadi - aqlsizga so'z aysang, suv tagiga ketadi". "Yaxshi naqlning tomiri - aql", "Xalq aytmas, xalq aytas - xato aytmas".

Go'zal UMUROVA,
SamDChTI professori,
filologiya fanlari doktori.

Bugungi kunda O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimiga 8 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 3 ta milliy tabiat bog'i, 10 ta davlat buyurtma qo'riqxonalari, 6 ta tabiat yodgorliklari, 3 ta yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish pitomniklari ham kiradi. Jumladan, viloyatimizdagi Omonqo'ton milliy tabiat bog'i sayyohlarni o'ziga jalb qilayotgan go'zal maskanlardan biri hisoblanadi.

Omonqo'ton milliy tabiat bog'ining umumiy yer maydoni 1500 gektar bo'lib, dengiz sathidan 1600-1800 metr balandlikda joylashgan. Hududning 1000 gektarga yaqini qo'riqxonaga, 400 gektari rekreatsiya va 100 gektari xo'jalik zonalaridan iborat. Tabiat bog'i Zarafshon tog' tizmalarining Urgut tumani hududidagi qismida, ya'ni, Taxti Qoracha dovoni (M-39 avtomagistrali)ning sharqiy tomonida joylashgan. Uning asosiy qismini o'rmonzor va tog'lik hamda xilma-xil tabiiy landshaftdan iborat.

Hududda "Bahora" va "Amir Temur" nomli bolalar yozgi dam olish oromgohlari joylashgan. Milliy tabiat bog'i o'ziga xos floristik tarkibga ega bo'lib, 1300 dan ortiq o'simlik turlari bor.

Toqqa chiqsangiz



Kiyik o'ti, tog' rayhoni, ravoch, avruk, andiz, yovvoyi kavrak, na'matak, tog' piyoz, tog' choyi, zira, qora zirk, qizil do'lana kabi 60 turdan ortiq dorivor o'simliklar o'sadi. Bu yerda daraxtlar va butalardan - akatsiya, achchiq bodom, qrim qarag'ayi, Zarafshon archasi, dub, yasen, pista, oq do'lana, zarang, daryo bo'yilariga yaqin joylarda, jangal, chakanda o'sadi. Shuningdek, tog' lolasi, gulsafsar, ferula, qoqi o't, boychechak, gazak o't, moychechak, lolaqizg'aldoq, chitir, qashqar beda va boshqa ko'plab o'simliklar uchraydi. Hududda umurtqali hayvonlarning 127 turi uchraydi.

Omonqo'ton milliy tabiat bog'ini zamonaviy dasturlar va innovatsion g'oyalar asosida turistik zonaga aylantirish mumkin. Bu hududda yashovchi aholini ish bilan ta'minlashda, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish,

shu bilan bir qatorda ekologik madaniyatning shakllanishiga olib keladi. Milliy bog' hududi atrofida aholi yashash manzil-ohlarida ko'plab mehmon uylari, choyxona va restoranlar tashkil qilingan. Biroq odamlarning tabiatga nisbatan nooqilona munosabatda bo'lishi natijasida milliy bog' hududida ham ifloslanish holatlari kuzatilmoqda. Bahorda minglab lolagullar yulib tashlangani tufayli bu noyob gul kamayib ketmoqda. Qizil kitobga kiritilgan ayrim o'simlik turlari yo'qolib boryapti.

Bog' tabiatini asrash, bioxilma-xillikni saqlash, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilish uchun unga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish har birimizning insoniy burчимizdir.

Gulmira KELDIYOROVA,
Muxtasam BAROTOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsentlari.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Adilov Kamoliddin Namozbayevichga (2024-yil 2-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasida marhum Axmedov Xasanga (2012-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Bobojonov Xalilga (2012-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Atoyev Xamroqulga (2017-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Xamidova Donoxolga (2020-yil 28-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Kayumov Azim Mamatkulovichga (2022-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qorako'zov Abduaziz Muhitdinovich notarial idorasida marhum Otamurodova Iroda Ergashevna (2021-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qorako'zov Abduaziz Muhitdinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut tumani Pochvon mahallasi.

BEKOR QILINADI

Xalilova Gulnora Borisovna nomidan ishonchnoma asosida Rasulov Shoxruxjon Jamshedovich va Djurakulova Mamlakat Yaxyayevnalar o'rtasida Samarqand shahri Go'ro'g'li ko'chasi, 30-uy-joyning 50/100 qismida joylashgan xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial

idorasidan 2024-yil 8-yanvarda tasdiqlanib, Ksh 058299 SA blankada tuzilgan, 202401795000033 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi va shu uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

"SAGDIANA REAL SERVIS" MCHJ tomonidan savdoga qo'yilgan va savdo g'olibi Abdusalamov Feruz Toxirjonovich tomonidan sotib olingan Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li (A.Ikromov) ko'chasi, 67-uyning birinchi qavatida joylashgan yozgi qahvaxona (yer uchastkasi yuzasi 240,21 kv.m.) va 2 xonadan iborat savdo do'kon uchun (umumiy yer maydoni 108,92 kv.m., foydali maydon yuzasi 96,52 kv.m.) 2013-yil 5-avgustda tuzilgan 3/4-sonli savdo bayonnomasi va ushbu bayonnomasi asosida tuzilgan ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi, shuningdek, ushbu obyektning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Viloyatdagi to'rtta sport maktabi sport turlariga ixtisoslashtirildi

Prezident qaroriga ko'ra



Prezidentning 2024-yil 18-dekabrda "Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2025-2026-o'quv yilidan sport maktablarini sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyotini joriy etish belgilangan edi.

Xo'sh, viloyatdagi qaysi sport maktablari sport turlariga ixtisoslashtirilmoqda, bu amaliyot joriy etilsa, tizimda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Prezident qarori asosida ilk marta viloyatning to'rtta - Samarqand shahridagi 2-son sport maktabi futbolga, Oqdaryo tumanidagi sport maktabi yunon-rum kurashiga, Past Darg'om tumanidagi 2-son sport maktabi dzyudoga va Paxtachi tumanidagi sport maktabi badiiy gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirildi, - deydi viloyat sport boshqarmasi ixtisoslashgan sport maktablari bilan ishlash shu'basining boshlig'i Bahodir Berdiqulov.

Bunda sport turlari rivojlangan, shug'ullanish uchun qulay sharoit yaratilgan hududlar hamda mamlakat va

xalqaro chempionatlarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan sportchi va trenerlarning natijasi hisobga olindi. Oldin sportchilar o'z hududidagi sport maktabida qaysidir sport turi bilan shug'ullanish uchun sharoit bo'lmasa, boshqa tuman yoki shahardagi sport maktabida shug'ullanishning imkoni yo'q edi. Endi esa ixtisoslashgan sport maktablarida 2025-2026-o'quv yilidan viloyatning boshqa tuman (shahar)laridagi sportchilar ham shug'ullanishi mumkin.

Viloyat sport boshqarmasi mas'ulining ta'kidlashicha, ixtisoslashgan sport maktablarida sportchilar uchun qulay sharoit yaratish va terma jamoaga iqtidorli sportchilarni jalb qilish maqsadida keyingi yillarda qo'shimcha binolar, yotoqxona va oshxonalar qurilishi rejalashtirilmoqda. Aytish joizki, ayni paytda O'zbekiston milliy terma jamoasining asosiy tarkibiga 949 nafar, zaxira tarkibiga 472 nafar samarqandlik sportchi qabul qilingan. Bu terma jamoa sportchilarining qariyb 10 foizini tashkil etadi. Sport maktablarini sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyoti orqali shug'ullanuvchilar va terma jamoa sportchilari soni yanada ko'payadi. Murabbiylar ham ixtisoslashgan sport maktablariga seleksiya qilinadi.

F.RO'ZIBOYEV.

Alisher Navoiyning komil inson g'oyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi mukammal jamiyat to'g'risidagi qarashlarida, odil rahbar haqidagi fikr-o'yalarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, huquqiy qoidalarga rioya qilishida o'z aksini topadi. Bu inson barcha mutafakkirlar singari o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlariga nisbatan ilg'or qarashlarini bildirgan allomadir. Navoiyning "Xamsa", "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Vaqqiya", "Mahub ul-qulub", "Munshaot" va boshqa asarlarida davlat boshqaruvi va hukmdorlar hamda ularga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy nafaqat nazariyada, balki amalda davlat boshqaruvi va o'sha davr hukmdorining ma'naviy qiyofasini har tomonlama ochib berdiki, u davlat haqida an'anaviy nazariyalarni takrorlamay, ilmiy asosda o'z qarashlarini bayon qilgan.

El komil insonga ergashadi

Alisher Navoiyning rahbarlik salohiyati xususidagi qarashlari haqida

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini to'xtatib qolib, osoyishtalikka saqlashda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Shu voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muhrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. Alisher Navoiyning maqsadi saroyda maslahatchi bo'lib qolish, ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanish edi. Biroq Husayn Boyqaro 1472-yilda uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi.

Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo, butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalikka o'rnatishga qaratadi.

Tarixchi Xondamirning qayd qilishicha, Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlatirgan. Ular orasida Hirotdagi «Xalosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huf-foz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhadagi «Dorul-huf-foz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Allomaning do'sti sulton Husayn Boyqaroning ezu ishlarga, xalq dardi bilan yashashga undaydi. Xususan, allomaning "Munshaot" asarida Sulton Husayn Boyqaroga o'zining qimmatli maslahatlari va nasihatlari, arz va iltimoslarini bayon qilganligini ko'ramiz. Navoiy bir xatida Husayn Boyqaroga "Hech vaqt ko'ngulni Tangri Taolo yodidini g'ofil va musulmonlar dodidin o'til qilmang. Do'stlar fikridin va dushmanlar makridin beparvolig' joyiz ermas, va bu ish nadomatdin o'zga natija bermas", - deb nasihat qiladi, saltanat ishlarini boshqarishda sergak va oqoh

bo'lishga chaqiradi.

Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari, uning obro'-e'tibori xalq orasida tobora ortib borishi o'z manfaatlarini ko'zlagan saroy a'yonlari orasida norozilik tug'dirdi. Ular shoir bilan podsho orasiga nifoq solishga urindilar. Natijada 1487-yilda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning vazifasidan bo'shatadi, bosh vazir vazifasini Muhammad Majiddin egallaydi. Navoiy esa Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Navoiy hokimlik qilgan 2 yil davomida Astrobod shahri va viloyati obodonlashib, qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, savdo ishlari yo'lga qo'yiladi. Alisher Navoiy Astrobodda ham ko'p yangi she'rlar yozgan, Hirotdagi yor-do'stlariga maktublar yo'llab turgan. Uning Astroboddan Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi risola, deysish mumkin. Navoiy maktublarini o'qish va uqish orqali o'quvchi insonning kamolotga erishish yo'lida qilishi kerak bo'lgan ishlarini chuqurroq anglash yo'lga o'tadi: "Olamda hargiz do'stluq kishi dushmanisiz bo'lmaydur va ahbobiq odami a'dosiz topilmaydur. Va tavfiq nishoni uldurkim, andoq maosh qilg'aykim, do'stlar tili dushmanlar qoshida qisqa bo'lmag'ay va ahbob boshi a'do ilayida quyi tushmagay." Shahzoda Badiuzzamonga yozilgan bu maktubda nasihat ruhi kuchli bo'lib, uni to'g'ri yo'lga boshlash maqsadi asos qilib olingan. Kuyinchak shoir shahzodani otasi yo'rig'idan chiqmaslikka, davlat ishlarini bamaslahat qilishga undaydi.

Xalqparvar davlat arbobi sifatida Navoiy bir maktubida davlatni boshqarish yo'llari, mamlakat va xalq osoyishtaligini saqlash, xalqning farovon yashashi kabi masalalar yuzasidan ham shahzodaga yo'l ko'rsatadi. Shahzoda Badiuzzamonga xatida Navoiyning ulug' qalbi, davlat va xalq manfaatini uchun kurashuvchi, shu bilan birga, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi, ular dilidagini tushunuvchi insonparvar shaxs ekanligi yorqin namoyon bo'ladi.

Ideal jamiyat timsoli adolatlilik hukmdor obrazi bilan chambarchas

bog'liq. «Xamsa» va boshqa asarlarda Iskandar, Bahromshoh, Xisrav timsollari orqali adolatlilik hukmdor, odil shoh, odilona boshqaruv tamoyillari, hukmdorning ma'naviy qiyofasi, fuqarolarga, toj-taxtaga munosabati, jamiyat hayotiga oid ijtimoiy, axloqiy munosabatlar Shohki, ish adl birla bunyod etar. Adli buzuv mulkni obod etar shaklida tarannum etilgan.

Navoiyning odil shoh g'oyasida mamlakat ahlining erkin va farovon hayotini ta'minlashni davlat boshqaruvining asosiy vazifasiga aylantirish maqsadi o'z ifodasini topgan:

Kerak luttu exson shior aylasang, Adolat yo'lin ixtiyor aylasang, Raiyatga sendan yetib shodlik, Mamolikka yuz qo'ysa obodlik.

Mamlakatni adolat bilan boshqarishni saltanatning qudratini belgilovchi omil sifatida talqin etar ekan, Navoiy davlatning iqtisodiy yuksalishiga muhim e'tibor qaratgan. Bu esa odil shoh g'oyasida Navoiy yashagan davr va milliy taraqqiyotning muhim ehtiyojlari ifodalanganini asoslaydi. Iqtisodiy yuksalish, xalq farovonligi va adolat bilan boshqaruv bugungi milliy taraqqiyot uchun salmoqli ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonning yosh avlodi bilimni, eng zamonaviy kasblarni egallagan, ayni paytda vatanparvar, fidoyi, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishi to'g'risida mulohaza yuritir ekanmiz, Alisher Navoiyning davlat va jamiyat boshqaruvi o'z "Erusen shoh - agar ogohsen sen, Agar ogohsen - shohsen sen", "Kishining ulug'ligi uning himmatidan bilinadi. Insonning himmati esa uning qiymatini belgilaydi", kabi fikrlari rahbar kadrlarda ogohlikka chorlash, faoliyatida tanqidiy mushohada yuritish, kompetentlikni oshirish, ilgama amal qilish bilan bog'liq boshqaruv va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxriyor XOLBOYEV,
O'zbekiston Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori vazifasini bajaruvchi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Амир Темур аркида археологик қазишма ишлари ўтказилади

9 апрель – Соҳибқирон Амир Темур таваллуд топган кун



Жорий йилнинг февраль ойида вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи Адиз Бобоев зиёлилар ва тарихчи олимлар билан учрашувда Самарқанднинг тарихини ўрганиш, Амир Темур саройининг жойлашиш ўрнини комплекс тадқиқ этиш, тарихий объектларни илмий ўрганиш ва реставрация қилиш бўйича таклиф ва ташаббусларни илгари сурганди.

Самарқанднинг тарихи, маданияти, меъморий ва археологик ёдгорликларини ўрганиш мақсадида вилоят ҳокимлиги ҳузурида илмий жамоатчилик кенгаши тузилиб, кенгаш аъзолари билан ҳамкорликда йўл харитаси ишлаб чиқилди. Унга кўра, бир неча йўналишда тарихчи олимлардан иборат ишчи гуруҳлар ташкил этилиб, Самарқанднинг тарихи, маданиятига оид бир қатор муаммоларни ҳал этиш, тадқиқотлар олиб бориш кўзда тутилган. Жумладан, Самарқанд археология институти олимлари томонидан Кўксарой майдонида археологик қазишма ишлари олиб борилиши кўзда тутилган бўлиб, вилоят ҳокимлиги томонидан 600 миллион сўм маблағ ажратилиши режалаштирилмоқда.

Маълумки, Амир Темур Самарқандни ўз салтанатининг пойтахти этиб эълон қилгач, шаҳарда кенг кўламли обдонлаштириш ишлари амалга оширилган. 1371-1372 йилларда шаҳарнинг ғарбий қисмида 34 гектар майдонни ўз ичига олган, тўрт қаватли Арки олия бунёд этилган. Теурийлар даврига оид ёзма манбаларда Арки олия икки қатор мудофаа девори билан ўраб олинганлиги, бу ерда Кўксарой, Бўстонсарой саройлари қад кўтарганлиги ҳамда давлат аҳамиятига эга иншоотлар - газна, курул-яроғ ишлаб чиқарувчи устaxonалар, омборxonалар, кутубхона, девонлар жойлашганлиги қайд этилади.



1868 йилда Самарқанд Россия империяси томонидан босиб олингандан сўнг шаҳар аркида ҳарбий гарнизон жойлаштирилади. 1868-1875 йилларда эса аркнинг топографик режаси олинади. 1878 йилда рус ҳарбийлари аркада ҳарбий истеҳком қуриш учун дастлаб арк мудофаа деворларини текислаган бўлса, 1880-1881 йилларда аркадаги қолган иншоотларни бузиб олиб борилади. Жумладан, Шайх Нуриддин Басир мақбараси ҳам дастлаб порох сақландиган омборхонага айлантирилиб, кейинчалик тўлиқ портлатиб юборилди.

Айни вақтда институтимиз ходимлари томонидан қазувга қадар изланишлар олиб борилиб, архив, илмий ҳисобот, ёзма манбалар ҳамда картографик маълумотлар таҳлил қилинмоқда. Хусусан, бу борада Ўзбекистон Республикаси Миллий архив фондида сақланаётган, ҳарбий топографлар томонидан ту-



зилган 1870 йилга мансуб харита муҳим бўлиб, Амир Темур арки худудиде Кўксарой ва Нуриддин Басир мақбарасининг ўрни кўрсатилган. Харитани таҳлил қилиш асосида мутахассислар томонидан Кўксарой ва Шайх Нуриддин Басир мажмуасининг ўрни тахминан 10-15 метр радиусда локализация қилинди. Бу эса яқинда арк худудиде олиб борилиши лозим бўлган қазув ишлари давомида археологик тадқиқотларни йўналтиришда муҳим ҳисобланади.

Шу билан бир қаторда, Самарқанд шаҳрининг энг қадимги даврини ўрганиш бўйича изланишларни давом эттириш режалаштирилган. Маълумки, 1970 йилда кўхна кентнинг 2500 йиллиги, 2007 йилда эса 2750 йиллиги нишонланган. Ўтган вақт давомида археологик тадқиқотларда янги фанлараро тадқиқот усуллари кириб келди. Ушбу усуллардан келиб чиққан ҳолда, шаҳарнинг биоархеологияси, археоботаника ва археозоологиясини ўрганиш имконияти юзага келмоқда. Зеро, ушбу йўналишлар шаҳарнинг қадимги давр тарихини янада чуқурроқ ўрганиш ва тадқиқ этиш имконини беради.

Бундан ташқари, вилоятдаги археологик ёдгорликларнинг электрон базасини шакллантириш ҳам олдимиздага асосий масалалардан бири. Шу боис янги платформа яратилди. Расмий маълумотларга кўра, Самарқандда мингга яқин археологик объект рўйхатга олинган. Бирок институтимиз олимлари томонидан олиб борилган изланишлар давомида 1600 га яқин археологик объектнинг ўрни аниқланди. Яқинда республикамиздаги тарихчи олимлар ва археологлар иштирокида олиб борилган қазув ишларига бағишланган ҳисобот сессияси бўлиб ўтди. Унда янги электрон платформанинг тест шаклидаги тақдироти намоиш қиламиз. Шунингдек, йил давомида вилоят маданий мерос бoshqarmasi билан ҳамкорликда вилоятдаги барча ёдгорликлар қайта хатловдан ўтказилиб, объектлар ҳақидаги маълумотлар тўлиқ тизимга киритилади.

Мўминхон САИДОВ,
Самарқанд археология институти директори,
вилоят ҳокимлиги ҳузуридаги жамоатчилик кенгаши раиси.

Яқинда кўшни туманда яшайдиган танишим тўйга таклиф қилди. Бордим. Ҳашаматли базмоқга кириб борар эканман, таклиф этилганлар кўп бўлса керак, деб ўйлардим. Ичкxанига кирсам, тўйхонанинг биринчи қаватидаги стол-стулларнинг ярмидагина дастурхон безатилган. Иккинчи қават бўм-бўш.

Спиртли ичимликсиз тўй



Тўй эгаси ўзига тўқ оила бошлиғи, фарзандлари ҳам топарман-тутарман. Базмин неча бундай ихчам қиялати? Бу савол кўпчиликнинг хаёлидан ўтгани табиий. Эътиборлиси, дастурхонда спиртли ичимлик йўқ.

Тўй охирагач, бир стол трюнда ўтирган меҳмонлар билан ташқарига чиқдик. Бизни кузатишга чиққан танишимга ўзимни қизиктираётган саволларни беришни истадим.

- Дўстим, тўй зўр бўлди, бўларкан-ку!..

- Ҳа, бу маҳалламиз раиснинг ташаббуси, - деди гапимни бўлиб ва берилдиган барча саволларимни кўзимга қараб ўқигандек сўзида давом этди. - Тўйларимиз кўпи билан 300 кишилик бўляпти. Спиртли ичимлик қўйилмаяпти. Раис ўртаҳол оиладан чиққан, ҳалолликни хуш кўради. Шу пайтгача қаерда ишлаган бўлса, ўша жойда садақат билан меҳнат қилган. Айримларга ўхшаб, икки-уч жойда ишлаб, хаёлини бўлмайдди. Маҳаллада ҳам кеңча кўндүз вазифасига меҳр қўйиб ишлапти. Айниқса, унинг учун бой бўладими, камбағал бўладими, тўй-маъракалар

бир хил ўтиши керак. Нурунийлар билан яхши тил топишади. Маҳаллада унинг қарорига қарши чиқадиганлар бўлса, қишлоқ оқсоқоллари ўртага олади. Мен ҳам аввало, исрофгарчиликни ўйлаб, кейин уларнинг хурмати учун ҳам тўйни шундай ўтказишга қарор қилдим.

Ихчам тўйларнинг кўпини кўрганмиз, ammo спиртли ичимликсиз ўтадиганлари камдан кам. Бошқалар бу маҳалла раисидан ўрناق олса бўлади. Бундай тажриба бошқа худудларда ҳам қўлланилса қанийди!

Турди ТУРСУНОВ,
меҳнат фахрийси.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 481 nusxada chop etildi. Buyurtma 165. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaga manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda